

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUN, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 12-son (26-iyun, 2026-yil).– 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

TARIXIY XOTIRA ASOSIDA BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARIDA MILLIY IDENTIKLIKNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Sharipov Olimjon Oripovich

Mustaqil tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy pedagogik ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy xotira vositasida milliy identiklikni shakllantirishning konseptual, nazariy va metodologik asoslari tahlil qilingan. Jamiyat globallashuvi va raqamli transformatsiyalar davrida tarixiy ongning asrash, milliy qadriyatlarni talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatiga integratsiya qilish mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqotda aksiologik, kompetensiyaviy va tizimli yondashuvlar tahlil qilinib, bo'lajak pedagoglarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy xotira, milliy identiklik, bo'lajak tarix o'qituvchisi, aksiologik yondashuv, raqamli didaktika, ijtimoiy xotira, kasbiy kompetensiya.

THE THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF FORMING NATIONAL IDENTITY IN FUTURE HISTORY TEACHERS BASED ON HISTORICAL MEMORY

Sharipov Olimjon Oripovich

Independent Researcher

Jizzakh State Pedagogical University

Annotation. This article analyzes the conceptual, theoretical, and methodological foundations of forming national identity among future history teachers studying in higher pedagogical educational institutions through historical memory. It highlights the mechanisms for preserving historical consciousness and integrating national values into the professional-pedagogical activities of students during the era of societal globalization and digital transformations. The study analyzes axiological, competence-based, and systemic approaches, and proposes practical recommendations for strengthening the ideological immunity of future teachers.

Keywords: Historical memory, national identity, future history teacher, axiological approach, digital didactics, social memory, professional competence.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i12/n36>

Zamonaviy dunyoda globallashuv va axborot oqimining tezlashishi natijasida yoshlar ongi va qadriyatlar tizimida jiddiy transformatsiyalar kuzatilmoqda. Ayniqsa, milliy o'zlikni anglash inqirozlari va tarixiy xotirani sun'iy ravishda o'zgartirishga bo'lgan urinishlar davlatlarning ma'naviy xavfsizligiga bevosita tahdid solmoqda. Ushbu murakkab sharoitda o'sib kelayotgan yosh avlodda milliy g'urur, vatanparvarlik va mustahkam daxldorlik tuyg'usini shakllantirish bevosita tarix ta'limining sifatiga va bu vazifani amalga oshiruvchi pedagog kadrlarga bog'liqdir.

Bo'lajak tarix o'qituvchilari ta'lim tizimida shunchaki faktlar to'plamini yetkazuvchi shaxs emas, balki jamiyatning ijtimoiy-tarixiy xotirasini saqlovchi va uni yangi avlod ongi bilan bog'lovchi bosh mediator hisoblanadi. Shu sababli, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda ularning shaxsiy va kasbiy milliy identikligini ilmiy va uslubiy jihatdan to'g'ri shakllantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Tarixiy xotira – bu shunchaki o'tmish voqealarining xronologik bayoni emas, balki xalq yoki millatning o'z o'tmishini bugungi kun prizmasi orqali his qilishi, baholashi va qadrlashidir. U ijtimoiy ongning o'ziga xos shakli bo'lib, avlodlar o'rtasidagi ma'naviy ko'priklar va vazifasini o'taydi [5].

Milliy identiklik esa shaxsning muayyan milliy hamjamiyatga tegishli ekanligini chuqur anglagan holda, uning tili, madaniyati, an'analari va tarixiy taqdirini o'zlashtirishi, u bilan umumiy taqdiridoshlikni his etishidir [2].

Tarixiy xotirasiz milliy identiklik vujudga kelmaydi. Agar millat o'z tarixiy ildizlaridan uzilsa, uning o'zlikni anglash tizimi yemiriladi va tashqi mafkuraviy ta'sirlarga zaif bo'lib qoladi.

Tarixiy xotirani faollashtirish quyidagi muhim ijtimoiy-pedagogik funksiyalarni bajaradi:

- Integrativ (birlashtiruvchi) funksiya: Talabalarni umumiy tarixiy o'tmish va buyuk ajdodlar merosi atrofida jiplashtiradi.
- Aksiologik (qadriyat yo'naltiruvchi) funksiya: O'tmish saboqlari va yutuqlari asosida yoshlarda munosabat va ichki e'tiqodni shakllantiradi [4].
- Prognostik (kelajakni modellashtirish) funksiya: Tarixiy tahlil orqali kelajak ijtimoiy-siyosiy rivojlanish yo'nalishlarini to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash tizimi faqatgina fan standartlarini o'zlashtirish bilan cheklanmasligi kerak. Ularda aksiologik pozitsiya yetakchi o'rin egallaydi. Bo'lajak o'qituvchi o'z milliy tarixining shonli va murakkab sahifalariga xolis baho bera olishi, obyektiv tarixiy haqiqatni himoya qila bilish kompetensiyasiga ega bo'lishi lozim [1].

Tarix o'qituvchisining professional portretida milliy identiklikning shakllanganlik darajasini quyidagi mezonlar orqali baholash mumkin:

Mezonlar guruhlari	Tarkibiy qismlari va ko'rsatkichlari
Kognitiv (bilish) mezon	Milliy etnogenez, davlatchilik tarixi, buyuk mutafakkirlar ilmiy merosi hamda xalqning madaniy obidalari haqida tizimli va fundamental bilimlarga egalik.
Aksiologik (hissiy-qadriyatli) mezon	Milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik tuyg'usining shaxsiy e'tiqodga aylangani, o'tmish siymolariga nisbatan faxr va mas'uliyat tuyg'usi.
Praksis (faoliyatli) mezon	Tarixiy manbalar va darsliklar bilan mustaqil ishlash, tarixiy ma'lumotlarni tahliliy-tanqidiy qayta ishlash hamda dars jarayonida o'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirish metodikasini qo'llay olish.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida milliy identiklikni shakllantirish jarayoni pedagogika fanining eng zamonaviy yondashuvlariga tayanadi. Bularga quyidagilar kiradi:

Tizimli yondashuv. Bu yondashuv oliy ta'lim muassasasidagi butun o'quv-tarbiya jarayonini yagona maqsad atrofida birlashtiradi. Milliy identiklik faqatgina "O'zbekiston tarixi" fani darslarida emas, balki barcha gumanitar fanlar integratsiyasida, auditoriyadan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda, ilmiy-tadqiqot to'garaklarida yaxlit tizim sifatida shakllantiriladi [1].

Aksiologik yondashuv. Inson va jamiyat hayoti zamirida shakllangan ma'naviy qadriyatlarni ta'lim mazmuniga singdirishni talab etadi. Mazkur yondashuv vositasida talabalarda tarixdan olingan saboqlarni hayotiy pozitsiyaga aylantirish, o'zbek xalqining dunyo sivilizatsiyasiga qo'shgan beqiyos hissasini ichki g'urur sifatida his qilish ko'nikmalari shakllantiriladi [4].

Kompetensiyaviy yondashuv. Talabalarning axborot-analitik va didaktik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan [3]. Bo'lajak o'qituvchi tarixiy ma'lumotlar ichidan asllarini soxtalaridan ajrata olishi va maktab o'quvchilariga tarixdagi milliy o'zlikni shakllantiruvchi elementlarni sodda, qiziqarli va ta'sirchan usullarda oyetkazib bera olishi shart.

Nazariy asoslarni amaliyotga tatbiq etish uchun oliy ta'lim tizimida quyidagi innovatsion pedagogik mexanizmlardan foydalanish yuqori samara beradi:

- TRIZ (Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) texnologiyalari: Tarixiy manbalar va ziddiyatli o'tmish voqealarini tahlil qilishda talabalarning mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlashini faollashtiradi, ularni qolipli sterotiplardan chiqishga o'rgatadi [6].
- Raqamli didaktika va TPACK modeli: Zamonaviy tarix o'qituvchisi nafaqat pedagogik, balki texnologik bilimlarga ham ega bo'lishi zarur. Raqamli platformalar, 3D muzey ekskursiyalari, tarixiy hujjatli filmlar interaktiv tahlili vositasida tarixiy xotirani vizuallashtirish milliy identiklikni jonli tarzda anglashga yordam beradi [7].
- Loyiha metodikasi: Talabalarga "Mening shajaramdagi tarixiy xotira", "Mahallamiz qahramonlari" yoki "O'zbekiston davlatchiligi ramzlari evolutsiyasi" kabi mavzularda mustaqil tadqiqot loyihalarini topshirish ularning ijtimoiy va kasbiy mas'uliyatini oshiradi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy xotira va milliy identiklikni shakllantirish faqatgina ma'lumotlarni uzatish bilan cheklanmaydi. Zamonaviy pedagogikada ushbu jarayonni chuqurroq anglash uchun germenevtik va sinergetik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Germenevtik yondashuv. Germenevtika – matnlarni, xususan, tarixiy manbalarni talqin qilish va tushunish nazariyasidir. Tarixiy xotira ko'pincha yozma manbalar, arxeologik topilmalar va me'moriy obidalar orqali shakllanadi. Germenevtik yondashuv talabaga quruq faktlarni yodlashni emas, balki tarixiy voqea va matnlarning ichki ma'nosini chaqishni, o'sha davr ruhini his qilishni o'rgatadi [8]. Masalan, jadid mutafakkirlarining asarlarini o'qiyotgan bo'lajak o'qituvchi ularning nafaqat nima yozganini, balki qanday ijtimoiy-siyosiy sharoitda, qanday milliy dard bilan yozganini kognitiv darajada talqin qila olishi kerak. Bu orqali talabada milliy taqdirdoshlik hissi chuqur ildiz otadi.

Sinergetik yondashuv. Tarix va ijtimoiy xotira chiziqli ravishda rivojlanmaydi, u ziddiyatlar, inqirozlar va yuksalishlardan iborat murakkab ochiq tizimdir. Sinergetik yondashuv bo'lajak o'qituvchilarga tarixiy jarayonlarni uzluksiz o'zgarishda bo'lgan, murakkab va o'z-o'zini tashkil etuvchi tizim sifatida ko'rish imkonini beradi. Yosh pedagog milliy o'zlikni anglashni shunchaki o'tmish bilan cheklab qo'ymay, uning bugungi kundagi modernizatsiya jarayonlari bilan qay tarzda qorishib ketayotganini tahlil qila olishi lozim [9].

Psixologik nuqtai nazardan, milliy identiklik shaxsning o'zini muayyan xalqqa faqat aqlan emas, balki ruhan va hissan bog'lashi orqali namoyon bo'ladi. Bu jarayonda tarixiy empatiya konsepsiyasi hal qiluvchi o'rin tutadi.

Tarixiy empatiya – bu o'tmishda yashagan insonlarning xatti-harakatlari, qabul qilgan qarorlari va kechirgan hissiyotlarini o'sha davr sharoitidan kelib chiqib tushunish qobiliyatidir [10]. Bo'lajak o'qituvchi:

- Jaloliddin Manguberding mo'g'ullarga qarshi kurashdagi psixologik holatini;
- Qatag'on yillari qurboni bo'lgan ziyolilarning iztiroblarini;
- Ikkinchi jahon urushida front ortida mehnat qilgan o'zbek xalqining matonatini o'zida his qila olishi va buni o'quvchilarga yetkaza bilishi kerak.

Empatiya mexanizmi ishga tushganda, o'tmishdagi ajdodlar shunchaki tarixiy shaxslar emas, balki bizning bobolarimiz degan psixologik daxldorlik yuzaga keladi. Bu daxldorlik milliy identiklikning eng mustahkam poydevori hisoblanadi.

Oliy ta'limda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va milliy o'zligini shakllantirish faqat auditoriya devorlari ichida amalga oshmaydi. Zamonaviy yondashuvlar makro-tarixdan ko'ra, mikro-tarixga – hududlar, qishloqlar va sulolalar tarixiga ko'proq e'tibor qaratishni talab etmoqda.

“Og'zaki tarix” metodologiyasi. Talabalarni o'z shajarasi, qishlog'i yoki mahallasining tarixini keksalar, urush yoki mehnat faxriylari bilan suhbatlar asosida yozib olishga jalb qilish ulkan pedagogik samara beradi. “Og'zaki tarix” talabani passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi. O'z oilasi yoki hududi tarixini xalqning umumiy tarixi bilan bog'lay olgan talabadagina milliy g'urur va identiklik amaliy jihatdan mustahkamlanadi [12].

Muzey pedagogikasi. Muzeylar shunchaki qadimiy ashyolar saqlanadigan joy emas, balki tarixiy xotira konsentratsiyalashgan ilmiy-ma'naviy laboratoriyalardir. Bo'lajak tarix o'qituvchilari muzey ekspozitsiyalaridan didaktik material sifatida foydalanishni, muzey darslarini (kvestlar, ekspонатlar bilan amaliy ishlash) tashkil etishni o'rganishlari zarur [11]. Moddiy madaniyat obidalarini o'z qo'li bilan ushlab va tahlil qilish vizual xotirani kuchaytiradi va milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantiradi.

Postmodernizm va raqamli axborot asrida tarixiy xotirani ataylab soxtalashtirish, milliy qahramonlarni obro'sizlantirish va xalqning o'tmishini qora ranglarda ko'rsatishga qaratilgan mafkuraviy xurujlar ko'payib bormoqda. Bunday sharoitda milliy identiklikni saqlab qolish bo'lajak tarix o'qituvchilaridan yuksak tarixiy media-savodxonlikni talab qiladi [13].

Bo'lajak mutaxassislarda quyidagi immunologik ko'nikmalarni shakllantirish metodologik zaruratdir:

1. Axborotni dekodlash: Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida tarqalayotgan tarixiy ma'lumotlarning asl maqsadini, uning orqasida qanday siyosiy yoki mafkuraviy manfaatlar yotganini aniqlay olish.

2. Fakt-cheking: Shubhali tarixiy da'volarni birlamchi manbalar, arxiv hujjatlari va xolis ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda tekshirish hamda inkor etish kompetensiyasi [8].

3. Milliy narativni himoya qilish: Tariximizdagi ziddiyatli masalalar bo'yicha milliy manfaatlarga mos, ilmiy asoslangan barqaror pozitsiyani o'quvchilarga tushuntira olish.

O'qituvchi maktab muhitida feyk axborotlarga qarshi qalqon vazifasini bajaradi. Uning o'zida tarixiy xotira asosida shakllangan milliy identiklik qanchalik mustahkam bo'lsa, u tarbiyalayotgan avlod ham yot g'oyalarga shunchalik chidamli bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak tarix o'qituvchilarida milliy identiklikni shakllantirish jarayoni ko'p o'lchamli va polistrukturaviy xususiyatga ega. U o'zida kognitiv-bilish, hissiy-psixologik va amaliy-faoliyatli komponentlarni mujassamlashtiradi. Ayniqsa, bugungi

globallashtirish va axborot urushlari davrida tarix o'qituvchisi nafaqat o'tmish haqidagi bilimlarni uzatuvchi tarjimon, balki milliy o'zlik va ma'naviy xavfsizlikni ta'minlovchi strategik kadr darajasiga ko'tariladi. Ushbu metodologik va nazariy yondashuvlarning oliy ta'lim amaliyotiga tizimli joriy etilishi Yangi O'zbekistonning poydevorini yaratuvchi vatanparvar, intellektual salohiyatli yosh avlodni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Yarmatov R.B. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini takomillashtirishda loyihalashtirishning nazariy va amaliy asoslari. Monografiya. – Jizzax: JDPU, 2022. – 180 b.
2. Kadirova X.B. Milliy identiklik va o'zlikni anglashning ahamiyati // O'zMU xabarlar (Вестник НУУз). – Toshkent, 2024. – №1/5. – B. 45-51.
3. Siddikov I. Pedagogical bases for the development of informational-analytical competence in future history teachers // Scientific journal of the Fergana State University. – Farg'ona, 2023. – Vol. 29, Iss. 1. – pp. 112-118.
4. To'ychiyeva D.I. Bo'lajak tarix o'qituvchilarida aksiologik pozitsiyani shakllantirish muammolari // Namangan davlat pedagogika instituti ilmiy tadqiqotlar jurnali. – Namangan, 2022. – №3. – B. 88-94.
5. Raxmonov R., Fayziyev F. Yoshlar dunyoqarashida tarixiy ong va tarixiy xotiraning o'rni: tarixiy ong va milliy o'zlikni anglash integratsiyasi // Pedagoglar xalqaro ilmiy jurnali. – 2022. – Vol. 12, Issue 2. – B. 4-8.
6. Ergashev B.O. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining ijodiy kompetensiyasini TRIZ texnologiyalar vositasida rivojlantirish // NamDU ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2024. – №5. – B. 174-179.
7. Yursinboyev J.M. Kelajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati // "Raqamlashgan jamiyatdan axborotlashgan jamiyat sari: ta'limdagi transformatsiyalar" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Chirchiq, 2025. – B. 490-495.
8. Qosimov, F. O'zbekiston tarixini o'qitishda germeneytik yondashuv va jadidchilik merosini anglash muammolari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, (4), 2023. 112-118.
9. Xoliqov, A.A. Pedagogik jarayonlarni modellashtirishda sinergetik yondashuvning metodologik xususiyatlari. Zamonaviy ta'lim, 9(118), 2022. 34-40.
10. Tursunova, G. Tarix darslarida o'quvchilarda tarixiy empatiyani shakllantirishning psixologik mexanizmlari. Psixologiya jurnali, 1(55), 2024. 77-83.
11. Abdullayeva, N. Muzei pedagogikasi – bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy xotirani shakllantirishning innovatsion shakli sifatida. O'zbekiston muzeylari xabarnomasi, (2), 2021. 45-50.
12. Toshpo'latov, M.M. "Og'zaki tarix" metodologiyasini oliy ta'lim tizimiga joriy etishning istiqbollari (Tarix yo'nalishi misolida). Jahon tarixi va uning zamonaviy talqinlari, 2(4), 2023. 120-127.
13. Karimov, B. Tarixiy o'tmishni axborot-psixologik xurujlardan himoya qilishda media-savodxonlikning o'rni. Ijtimoiy-gumanitar fanlar va ta'lim, 5(2), 2024. 200-205.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, 26-iyun

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 12-son (iyun, 2026-yil). – 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyun.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.